

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Tuymayev Sunatillo Nuriddin o'g'li**

Bank moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002596>

***Annotatsiya.** Maqolada soliq madaniyatini rivojlantirish soliq tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini doimiy ravishda optimallashtirish, byudjetni to'ldirish manbai sifatida soliq tizimining to'liq faoliyat yuritishi uchun muhim bo'lgan mamlakatda soliq madaniyatini yuksaltirish. Mamlakat soliq munosabatlarini qaysi tamoyillar asosida qurish kerakligi o'rganiladi. Maqolada aholining fiskal organlarga ishonchsizlik muammolari ochib berilgan. Soliq madaniyati nuqtai nazaridan adolat turlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** Soliq madaniyati, soliq madaniyatini shakllantirish, soliq madaniyatini shakllantirishning subyektiv va obyektiv omillari, fiskal organlarga ishonchsizlik, adolat turlari, xodimlarning kasbiy mahorati.*

## IMPROVING TAX AUDITS IN THE DIGITAL ECONOMY

***Abstract.** The article considers the main directions of tax system reform, development of tax culture. Continuous optimization of tax administration mechanisms, raising the tax culture in the country, which is important for the full functioning of the tax system as a source of budget replenishment. The country's tax relations are studied on the basis of which principles should be built. The article reveals the problems of the public's lack of trust in fiscal authorities. Types of justice from the point of view of tax culture are considered.*

***Key words:** Tax culture, formation of tax culture, subjective and objective factors of formation of tax culture, mistrust of fiscal bodies, types of justice, professional skills of employees.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОГО ПРОВЕРКИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

***Аннотация.** В статье рассмотрены основные направления реформирования налоговой системы, развития налоговой культуры. Постоянная оптимизация механизмов налогового администрирования, повышение налоговой культуры в стране, что важно для полноценного функционирования налоговой системы как источника пополнения бюджета. Изучены налоговые отношения страны, на основе каких принципов следует строить. В статье раскрываются проблемы недоверия населения*

к фискальным органам. Рассмотрены виды правосудия с точки зрения налоговой культуры.

**Ключевые слова:** Налоговая культура, формирование налоговой культуры, субъективные и объективные факторы формирования налоговой культуры, недоверие к фискальным органам, виды правосудия, профессиональные навыки сотрудников.

---

Soliq madaniyatini fikrlash va xulq-atvor madaniyati toifalari bilan bog'liq bo'lgan ham iqtisodiy, ham umumiy insoniyat madaniyatining ajralmas quyi tizimi sifatida ko'rib chiqish kerak.

Soliq madaniyatini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u soliq to'lovchining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan sub'ektiv va ob'ektiv omillar, shuningdek, soliq to'lovchi va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarning shakllari bilan belgilanadi, bu davlat soliq tizimini rivojlanishiga yordam beradi. Soliq munosabatlarining yuqori darajaga ega bo'lganligi soliq tushumlarining o'sishiga yordam beradi va ular, o'z navbatida, davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Soliqlarning taqchilligi turli xil salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ham soliq munosabatlarini takomillashtirish butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi hal qilinishiga bog'liq bo'lgan muhim muammolardan biridir. Soliq tizimining madaniy tarkibiy qismining ta'siri juda katta. Davlat tomonidan bunday huquqbuzarliklarni aniqlash chora-tadbirlarini moliyalashtirishni ko'paytirishdan ko'ra, soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

Ma'lumki, soliqqa tortishning eng muhim muammolaridan biri bu sun'iy bankrotlik yo'li bilan amalga oshirilayotgan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning sezilarli ko'lami hisoblanadi, korxonalar tomonidan QQSni qaytarish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qalbakilashtirish, soliq to'lovchilarning mavjud soliqqa tortish tizimiga salbiy munosabatda bo'lgan axloqiy va psixologik holati. Shu bilan birga, tartibga soluvchi qoidalarga ommaviy ravishda rioya qilmaslikka olib keladi, davlatga tuzatib bo'lmaydigan moddiy zarar yetkazadi va soliq jinoyatlarini sodir etishga yordam beradi. Bunday holat ko'p jihatdan aholining soliq madaniyatining pastligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlik, soliq xizmati organlari xodimlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi muloqotni yuqori soliq madaniyati talablariga rioya qilgan holda chuqurlashtirmasdan turib, demokratiya taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi.

Bugungi kunda soliq to'lovchilar soliq organlari oldida amalda ojiz, ularning

ko'pchiligi nima uchun soliq to'lashga majbur bo'layotganliklarini tushunmaydilar. Soliq to'lovchilarning soliq to'lashga munosabati doimo noaniq bo'lib kelgan, soliqlarni aholini ko'p qismi salbiy qabul qiladi. Soliq madaniyatini tarbiyalash va rag'batlantirish bo'yicha yanada chuquroq, chora-tadbirlar ham muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina mamlakatlarda mahalliy amaliyotda ommaviy targ'ibot deb ataladigan tadbirlarga katta ahamiyat beriladi. Bunday ishlar nafaqat soliq to'lovchilar, balki bolalar bilan ham amalga oshiriladi. Bu boradagi dasturlar maktablarda, hatto maktabgacha ta'lim muassasalarida ham joriy qilingan. Mamlakatimizda ham Ta'lim muassasalarida o'quv bo'limlari bilan birgalikda bitiruvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha dasturlarni yaratish, soliq madaniyati va soliq savodxonligini keng targ'ib qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday dasturlar uchun soliq sohasidagi mutaxassislarni yuqori texnologiyali tayyorlash markazlari asos bo'lishi kerak.

Zamonaviy soliq tizimi iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni kengaytirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida soliq solish bazasini kengaytirish orqali soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish masalalari alohida o'rin tutadi. O'tgan yillar mobaynida tadbirkorlik subyektlari ustidan tekshirishlarni qisqartirish va ularning tadbirkorlik faoliyatiga asossiz ravishda aralashishlarga barham berish bo'yicha belgilangan tartibda zarur chora tadbirlar ko'rildi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish tartiblari bekor qilindi, tadbirkorlar tomonidan beriladigan soliq hisobotlarning shakli va taqdim etish muddatlari soddalashtirildi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi tizimini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi sababli davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilandi:

-soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

- soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotini o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini oshirish;

- soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan soliq mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta'minlash bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;

- faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

- soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatarga ega malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida "sog'lom raqobat"ni ta'minlash va "xufiyona biznes" yuritishga barham berish maqsadida: soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, real ish o'rinlarini legallashtirish uchun davlat soliq xizmati organlariga xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish vazifalari yuklatilmoqda. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga

oshirishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

birinchidan, soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish prinsiplari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda ma'muriy xarajatlar (sarflanadigan vaqt va mablag') darajasi yuqori bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas;

to'rtinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emas;

beshinchidan, soliq to'lovchi bilan soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi yagona standart va dasturiy mahsulotlar mavjud emas;

oltinchidan, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilgan;

yettinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjud.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi maqsad, vazifa va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ishbilarmonlikni muhitini yaxshilashda soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni liberallashtirish muhim o'rin tutdi. Shu bois mamlakatimizda keying paytda bu borada adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohatlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning natijasida butunlay yangi soliq ma'muriyatchiligini yuzaga kelmoqda. Tadbirkorlar buning amaliy ta'sirini va natijasini avvalgiday chiroyli so'zlarda emas balki o'zlarining kundalik faoliyatida xis etmoqda. Bugungi kunda soliq turlarini qisqarishi va stavkalarining pasayishi bo'yicha birinchi navbatda soliqlar turi 16 tadan 9 taga, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirilishi shu bilan birga yaqinqacha tadbirkorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan Pensiya, maktab va yo'l

jamg`armalariga 3,2 foizli yig`imlar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg`armalariga mazkur yig`imlarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili o`rtacha 6 trillion soliq to`lashdan ozod bo`ldi. Demakki shuncha mablag` o`zlarida qoladi. Shuningdek mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Buni aniq misollar orqali ifodalaydigan bo`lsak, transport soxasida soliq yuki 3 barobar, oziq ovqat sanoatida 2 barobar, to`qimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa 20 foizgacha kamaydi.

Shu o`rinda yana bir masalaga aniqlik kiritish zarur bo`ladi. O`tgan yili yangi soliq kodeksi amalga kiritilgandan keyin 23 ta maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari avvalgi imtiyozlarimiz saqlanib qoladimi yoki yo`qmi, degan savol bilan Prezidentimizga ham murojaat qilishgan edi. Ushbu savollar ko`ra 2020 yil fevral oyidan maxsus iqtisodiy zonalar to`g`risidagi qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarga ro`yxatdan o`tgan tadbirkorlarga imtiyozlar saqlanib qolinishiga kafolatlar berildi. Amaldagi qonunga binoan, ushbu tadbirkorlar investitsiya miqdoridan kelib chiqib mol-mulk, er va suv soliqlaridan 10 yilgacha ozod qilingan. Endilikda ushbu imtiyozlarga foyda solig`i ham qo`shiladi va korxonalar ixtiyorida yiliga qariyb 300 milliard so`m mablag` qoladigan bo`ldi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq soliq ma`murchiligini takomillashtirish jamiyatimizda tadbirkorlikni keng ko`lamda tarkib topishi hamda rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish borasida samarali islohatlar olib borilmoqda. E`tiborlisi shundaki tadbirkorlik faoliyatiga oid bir qancha normativ xujjatlar, qonun, qoninosti xujjatlar qabul qilinib, ularning huquqiy kafolatlari tobora mustahkamlab borilayotganligi aloxida o`rin egallaydi.

Soliq madaniyatini samarali rivojlantirish yo`nalishlari sifatida quyidagilar taklif qilinishimiz mumkin:

1) Davlat soliq xizmati organlarini qayta tashkil etish, axborot infratuzilmasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali yuqori malakali, axborotga asoslangan davlat soliq xizmati organini yaratish;

2) Soliq organlarining soliq madaniyatini rivojlantirish mexanizmini oshirish, bu byudjetiga soliq tushumlarining oshishiga yordam beradi;

3) Soliq solish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa subyektlarning soliq madaniyatini rivojlantirish mexanizmini yaxshilash, bu soliq tushumlarining byudjetga to`liq va o`z vaqtida tushishini ta`minlaydi

4) soliq to`lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi talablarini ixtiyoriy bajarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

5) Aholini soliq xizmati organlari faoliyati to'g'risida tizimli ravishda xabardor qilish, uning faoliyatini ommalashtirish;

6) Iqtisodiy, ma'muriy va psixologik usullardan foydalangan holda soliqlarni ixtiyoriy ravishda to'lashni rag'batlantirish;

7) Qo'pol soliq huquqbuzarliklari uchun soliq majburiyatini kuchaytirish; 8) Soliq to'lovchilar bilan do'stona hamkorlik modelini ishlab chiqish;

9) Soliq to'lovchilar o'rtasida tushuntirish ishlari sifatini oshirish;

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqotda taklif etilgan chora-tadbirlarni qo'llash soliq to'lovchilarda soliq'larga nisbatan hurmatli munosabat va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda soliq innovatsiyalarini joriy etishda tushunishni rivojlantirish imkonini beradi. Shu takliflar bilan soliq intizomini shakllantirish, rivojlantirish va nazorat qilish osonlashadi, aholi ichida soliq madaniyati yaxshilanadi, soliq organlari xodimlarining soliq savodxonligini ortadi, soliq bazasi ko'payadi, davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushum tushishi ortadi va yaxshilanadi, xufiyona iqtisodiyot ham kamayadi.

## REFERENCES

1. Rozhdestvenskaya E.S. Mintaqada moliyaviy savodxonlikni ta'minlash doirasida aholining soliq madaniyatini shakllantirish E.S. Rozhdestvenskaya. To'plamda: Moliyaviy ta'lim. Rossiyada moliyaviy ta'lim bo'yicha IV xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya: materiallar to'plami - 2021.
2. Varaksa N.G. Tadbirkorlik sub'ektlarining soliq savodxonligi davlat, viloyat, munitsipalitetning soliq xavfsizligini ta'minlash elementi sifatida Varaksa N.G. To'plamda: Moliyaviy ta'lim. Rossiyada moliyaviy ta'lim bo'yicha IV xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya: materiallar to'plami. - 2021.
3. Miller A.E., Miller N.V. Soliq madaniyatining viloyat byudjetiga soliq tushumlariga ta'sirini o'rganish Omsk ilmiy byulleteni. Seriya "Jamiyat. Hikoya. Zamonaviylik". 2016.
4. Bolotova A.A., Ivanchenko L.A. Soliq madaniyati darajasini oshirish soliq jinoyatlarining oldini olish asosi sifatida // Aviatsiya astronomikasining dolzarb muammolari. 2013.
5. Qosimov D.O. Soliq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning institutsional asoslari: Dis. Ph.D. ekon. Fanlar: 08.00.10: tasdiqlangan. 06.13.12.–M., 2012